

yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'larini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy ma'naviysaviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va Aishlog xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari. madaniyatarboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlari ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)T.2011
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T:O'zbekiston.1999.B.385
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son4. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109
5. Jadidchilik: islohot , yangilanish, mustaqillik, va taraqqiyot uchun kurash. Toshkent" Universitet" 1999.

ABU ALI IBN SINO: INSON KAMOLOTIDA INNOVATSION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLAR

Komila Dekanovna Alimova
Toshkent davlat stomatologiya instituti
"O'zbek tili va pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi.
komiladekanovna@gmail.com

Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish immkoniyatiga ega ekan, bu asta-sekin ison fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida rol o'ynaydi.

Ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof dunyoni bilishgagina emas, balki uning xulqi yaxshi yoki yomon jihatlarining tarkib topishiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odatlarga o'rganmasligi uchun uni yomon odatlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga alohida o'rin beriladi. Chunki inson oilada kamolga etadi.

Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Alloma oila munosabatlariga to'xtar ekan, ota-onaning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarni ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon qiladi. Insonning hulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta'sirini ta'kidlash bilan birga, turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug'laydi va qimorboz va sudxo'r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy ham ruhiy tomondan salbiy ta'sir etishini to'g'ri qiladi.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda engildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Jumladan, alloma yuqoridagi masalalarga o'zining "Tadbiri manzil" asarida maxsus bo'lim bag'ishlaydi. "Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash" bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoillar esa bolalarni engil-elpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishga yordam beradi. Talabaga bilim berish o'qituvchining ma'suliyatli burchidir. Shunga ko'ra Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, quyidagicha ta'lim beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxs xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqтира olish;
- berilayotgan bilimlarni eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berilishi;

- har bir soʻzning bolalar hissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishish zarur, deydi alloma.

Ibn Sino taʼlimotida bilishda qaysi metodlardan boʻlishidan qatʼiy nazar (u ogʻzaki ifodani, bilimlarni tushuntirish, turli koʻrinishdagi suhbat, tajriba) insonga haqiqiy bilim hosil qilish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad boʻlgan.

Alloma “Tib qonunlari” nomli asarida bolaga hali u tugʻilmasdan turibgʻamxoʻrlik qilish, goʻdaklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurdir, deydi. Bolani etuk inson boʻlib shakllanishida unga gʻamxoʻrlik, maʼsuliyatini his qilish, doʻstona munosabatlar tuygʻusini singdirib borish zarur, deydi. Ayniqsa, inson salomatligini faoliyatning boshqa barcha tomonlari bilan bogʻlab olib borish gʻoyasini ilgari suradi. Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning taʼlim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy ham axloqiy-estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi uning kamolga etishining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi.

Ibn Sinoning insonni ulugʻlovchi olim sifatida uning har tomonlama rivojlanishiga ishongan holda avvalo aqliy tarbiyani amalga oshirishga oid qarashlari diqqatga sazovardir. Ibn Sinoning axloq bobidagi qarashlarida esa sof insoniy xislatlar, munosabatlar, odob-axloq qoidalari meʼyorlari oʻz ifodasini topgan

Tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi esa Ibn Sinoning tarbiya sohasidagi katta xizmatlaridandir.

Olimlar fikricha, inson aqliy va jismoniy tomondan qanchalik etuk boʻlmasin, agar undagi bilim va kuch axloq meʼyoriga mos tushmasa, bunday kishi jamiyatning haqiqiy aʼzosi hisoblanmaydi va u jamiyatga foyda keltira olmaydi. Oʻzi uchun yashamasdan xalq uchun, uning manfaati uchun yashashga intiluvchi kishilarni Ibn Sino yaxshi axloqli kishilar deb hisoblaydi.

Olimning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulugʻlaydi va yangiliklar sari harakat qilishi, inson ruhiyati va qalbiga oshno boʻlishi, uning manfaati yoʻlida xizmat qilishiga, qudratiga ishonadi, inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini tinmay targʻib qiladi.

Alloma yana tibbiyot xodimlarining kasbiy madaniyati va shxsiy xislatlariga, ruhiyatiga eʼtibor berib, uning aqliy xususiyatlari, ruhiyati, mehnatsevarligi, bilimi, irodasiga asoslangan holda taʼlim-tarbiya ishini olib borish kerakligi haqidagi fikr-mulohazalari bilan milliy va umuminsoniy tibbiy-pedagogik fikr rivojiga ulkan hissa qoʻshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buyuk allomalarimiz. – T.: Islom Universiteti. 2002.
2. Ibn Sinoning ilm va axloqqa doir baʼzi risolalari. T.: 2009.
3. Raximov S. Abu ali ibn Sino taʼlim-tarbiya haqida T. Oʻqituvchi: 2011

4. Uvatov U. Buyuk allomalar. T. Yangi avlod. 2010
5. K.D.Alimova. Til bilish dunyoni bilishdir. SCIENCE AND EDUCATION. SCIENTIFIC JOURNAL ISSN 2181-0842. VOLUME 3, ISSUE 4 734 -737 betlar.
6. K.D. Alimova. Zamonaviy texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish. —INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/5| Page No.: 57-61 betlar.
7. K.D.Alimova. —Interviews of in uzbeklanguage problems and objectives|. Internatsional journal on integrated Education. Indoneziya 2020 yil. 88-90 betlar.
8. K.D.Alimova. —O_zbek tilida sitologiya terminlarining muammolari va vazifalaril. Namangan davlat ilmiy axborotnomasi. 2021 yil 1 son. 203-206 betlar

JADIDLAR INSONPARVARLIK VA MA'RIFATPARVARLIK G'OYA VA QARASHLARINING

YOSHLAR TA'LIM VA TARBIYASIDAGI O'RNI

Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li

Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya va tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelishi, jadidchilik harakati namoyondalarining g'oyalari va bu g'oya va qarashlarning yosh avlodning ta'lim-tarbiyasidagi o'rni va ro'li hamda hozirgi davrdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Jadidchilik harakati, ilm-fan, yangi usul maktablari, ta'lim, dunyoqarash, yoshlar, yoshlar tarbiyasi.

XIX asr o'rtalarida Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining bosib olinishi ushbu hududning tanazzulga yuz tutishiga, jahonning rivojlangan davlatlaridan juda ko'p sohalarda orqada qolib ketishiga, milliy qadriyatlar va urf-odatlarimiz toptalishiga olib keldi. Ilm-fan, maorif sohasida ham imperiya manfaatlaridan kelib chiqib, mahalliy aholini savodsizlikda, qoloqlikda tutib turishga qaratilgan siyosat olib borildi.

Mahalliy aholining aksariyat qismining ongida milliy o'zlikni saqlab qolish, madaniyatimizni asrash va xalqni ma'rifatli qilish g'oyalari saqlanib turar edi. O'rta Osiyoga nisbatan Rossiya imperiyasining harbiy jihatdan ustun ekanligi mahalliy aholining ochiqdan-ochiq kurashishiga imkon bermadi. SHuning uchun ham millatimiz, xalqimiz hayotiga befarq bo'lmagan kishilar, ayniqsa, ziyoli toifa vakillari millatni qoloqlikdan qutqaruvchi, ozodlikka eltuvchi yo'l sifatida xalqni ma'rifatli,